MUSIQA TERMINLARINING SEMANTIK VA TARIXIY-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna, NamDU katta o‘qituvchisi, PhD
Musaboyeva Zulxumor Baxtiyorovna, NamDU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa terminlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminlarning semantik jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, termin, tarixiy-etimologik qatlam, uslub, tur, janr, tushuncha maydoni, turkiy xalqlar.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ИСТОРИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МУЗЫКАЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. В данной статье анализируются историко-этимологические особенности музыкальных терминов. Освещаются семантические аспекты терминов.

Ключевые слова: семантическое поле, термин, историко-этимологический пласт, стиль, тип, жанр, понятийное поле, тюркские народы.

SEMANTICAL, HISTORICAL-ETYMOLOGYCAL FEATURES OF MUSIC TERMS

Abstract. This article analyzes the historical and etymological features of musical terms. The semantic aspects of the terms are covered.

Keywords: semantic field, term, historical-etymological layer, style, type, genre, conceptual field, Turkic nations.

Kirish.

O‘zbek xalqi turkiy xalqlarning bir tarmog‘i, qadimiy tamaddunning bir qismi sifatida ming yillar davomida shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan xalq sifatida tadrijiy takomillashuv yo‘lini bosib o‘tayotgan xalqlardandir. Xalqimiz asrlar osha dunyo madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Ming yilliklar davomida xalqimiz jahon xalqlari bilan hamnafas tarzda bir qator ijtimoiy tuzumlarni boshidan kechirdi. Bir qator bosqinchiliklar qurboniga aylandi. Shuningdek, barcha xalqlar, millat va elatlar bilan hamkorlikda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy aloqadorlikda mamlakatimiz taraqqiy etib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida barcha sohalarda jahon bilan integratsiya jarayoni kuchayib bormoqda. Shuningdek, san’at va madaniyat sohasida ham shu integratsiyani kuzatishimiz mumkin. Bu esa tilimizdagi musiqa san’ati leksikasida so‘nggi chorak

asr mobaynida sifat va miqdor o‘zgarishlarini yuzaga keltirdi. Masalan, zamonaviy san’at va madaniyat, musiqaning turli yo‘nalishlariga oid termin va so‘zlar tilimizga kirib keldi. Masalan, *rok, rep, jaz, orkestr, xor, trio, duet, mikrofon, reper, opera, saundtrek, kvinta, kvarta, pianino, fortepiano, estrada* kabi. Biroq xalqimizning asrlar osha sayqallanib kelgan musiqa san’ati o‘z o‘rnini yo‘qotgani yo‘q. Milliy musiqa san’atiga xos terminlar ham katta qatlamni tashkil etadi. Ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish, mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratishda uning terminologiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bugungi kunda “O‘zbek tilini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da nazarda tutilganidek, sohaviy lug‘atlarni yaratish dolzarb sanalayotgan davrda musiqa san’ati terminlarini jamlash va lingvistik tahlil qilish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma’lumki, mamlakatimizda musiqaga e’tibor azal-azaldan mavjud. Musiqa va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish o‘tmishda *ilmi musiqiy* deb yuritilgan. Ilmi musiqiyning muammolar tizimi musiqaning kelib chiqishi, uning ijtimoiy, ma’naviy, tarbiyaviy ahamiyati, kuy turlari (alhon) va janrlari, nag’ma, bu’d, jins, jam, iyqo, intiloqot (intonatsiya), ta’lif (ijod, kompozitsiya), cholg’ushunoslik (sinoatil-olat) va boshqa masalalardan tarkib topib, ularni o‘rganishda riyoziyot, ilmi tabiiy, handasa, mantiq va boshqa fanlar qonun-qoidalari, isbot vositalari keng tatbiq etilgan [2]. 20-asrning boshlaridan ilmi musiqiy Yevropa va jahon musiqashunosligining ilg’or uslubiy tamoyillari bilan boyitilib, zamonaviy musiqa sharqshunosligining tarixiy, uslubiy negizi va tarkibiy qismi sifatida rivojlangan [2; 8].

O‘zbekistonda keng qamrovli musiqshunoslik 20-asrdan rivoj topa boshladi. Keyingi davrda o‘zbek musiqashunosligi, asosan, musiqa merosini keng miqyosda to‘plash va tadqiq qilish masalalariga oid yirik asarlar, tadqiqotlar, to‘plamlar yaratildi [4].

Musiqa terminlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan dastlab Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida tahlil qilingan. Olim garchand oz oldiga musiqa terminlarini organishni emas umuman musiqa sanatini organishni maqsad qilgan bolsa ham, asarda koplab terminlarning etimologiyasiga toxtalib otgan. Jumladan, olim tanbur, nay, qoshnay, qobiz, maqomning bir qator terminlari kelib chiqishi haqida fikr-mulohazalarini bayon qilib otadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, semasiologik va onomasiologik tahlil, uzviy tahlil, assotsiativ tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Termin so‘zi lotincha terminus dan olingan bo‘lib, uning birinchi lug’aviy ma’nosi «chek, chegara»dir. Uning ikkinchi ma’nosi muayyan fan, texnika, san’at va boshqa sohalarga taalluqli bo‘lgan maxsus leksikani anglatadi. O‘zbek tiliga «termin» so‘zi XX asrning 40-50 yillarida kirib kelgan. Bu davrdan oldin «istiloh» va «atama» so‘zlaridan foydalanilgan [1, 24].

Termin tushunchasi nafaqat tilshunoslarni, balki turli soha mutaxassislarini qiziqtiradigan masaladir. Ularning har biri termin masalasiga o‘z sohalaridan kelib chiqqan holda yondashadilar va bu narsa pirovardida terminning umumiy ta’rifini qabul qilish masalasini yechishga monelik qiladi. Zero, termin tilning qonun-qoidasi jihatidan tilshunoslikning, ifodalagan tushunchasi jihatidan turli sohalar ob’ekti hisoblanadi.

Tildagi lugaviy birliklar, shu jumladan musiqaga oid terminlar ham oz mavzu guruhlariga kora semantik maydonni tashkil qiladi. Malum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi soz va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi. Ozbek tiliga musiqa semantik maydoni doirasida milliy musiqa sanati terminlari alohida mavzuiy guruhni tashkil etadi. Ozbek tilining milliy musiqa sanati terminologiyasi tarkibiga milliy musiqa sanatiga xos cholgular, kuy va qoshiqlar bilan, ularni ijro etish bilan bogliq leksemalar, shuningdek, maqomchilikka oid leksemalar kiradi. Masalan, *rubob, dutor, doirachi, sozanda, xonanda, tor, kosaxona, kuy* kabi.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi va shunga xos terminologiya yuzaga kelgan. Buni quyidagicha aks ettirish mumkin:

Maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog‘liq janrlar nomlari	**Estetik ta’sir ko‘rsatishni aks ettiruvchi terminlar**
Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, polka	*Ashula, cholg‘u, kuy, maqom yo‘llari, konsert, romans, ariya, balet, qo‘shiq*
Diniy musiqa, yoshlar musiqasi, maishiy musiqa, ommaviy musiqa, harbiy musiqa, kamer musiqa, xor musiqasi	

Terminlar tarixiy-etimologik jihatdan o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamga ajratiladi. O‘z qatlamga oid terminlar qadimiy bo‘lib, o‘z ichki imkoniyatlarimiz asosida yuzaga kelgan. Masalan: *aytim, aytim yo‘li, alla, alyor, qo‘shiq, kuy, lapar* kabi.

O‘zbek adabiy tilidagi musiqaga oid leksikaning juda katta qismini o‘zlashma qatlamga mansub lug‘aviy birliklar tashkil etadi.

O‘zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma’lum til elementlarining ko‘chishi, kirishidir. O‘zbek tiliga arab, fors-tojik va yevropa tillaridan anchagina musiqiy terminlar o‘zlashtirilgan.

O‘zbek tilidagi musiqaga oid o‘zlashma terminlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. O‘zbek tiliga arab tilidan tilidan o‘zlashgan musiqa terminlari. *mug‘anniy, hofiz, maqom, mashshoq, avj, savt, xalfa* kabi.
2. O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan musiqa terminlari: *dutor, sato, tor, harrak, dugoh, segoh, tarona, sozanda, navozanda, saraxbor, suvora, mavrigi* kabi.

3. Yevropa tillaridan o‘zlashgan musiqa terminlari: *akapella, akkordeon, akustika, alt, artikulyatsiya, arfa, balet, opera, simfoniya, pianino, gitara, xor* kabi.

Arab tilidan o‘zbek tiliga kasb-hunar nomlarining o‘zlashtirilishida quyidagi omillar yetakchi sabab bo‘lgan:

1. Arablar istilosi.
2. Islom dinining keng tarqalishi.
3. Arab yozuvining qo‘llana boshlaganligi.
4. Madrasalarda arab tilining o‘qitilishi.
5. Turkiy-arab ikki tilliligining tarkib topganligi.
6. Olimu suqarolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar.

Arab tilidan musiqaga oid terminlarning o‘zlashtirilishi o‘tmishda faol bo‘lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to‘xtagan.

Fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga kasb-hunar nomlarining o‘zlashtirilishida quyidagi omillar yetakchi sabab bo‘lgan:

1. O‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi.
2. O‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilligining keng tarqalganligi.
3. Tojik va fors tillarida ijod qilish an’analarining uzoq yillar davom etganligi.
4. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi.
5. Adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqalar [7, 191].

Quyida ayrim fors-tojikcha o‘zlashma leksemalarni tahlil qilib o‘tamiz.

Suvora. Xorazmda “Suvora” nomi bilan ma’lum va mashhur ashula turkumlari mavjuddir. Suvora so‘zi fors – tojikcha bo‘lib, “otliq” ma’nosini bildiradi. Xorazmda suvora ashula yo‘llarining ikki turkumi mashhur bo‘lib, ular bilan bog‘liq bir qator onomastic birliklar ham yuzaga kelgan: *Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, Chapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Hushparda Suvora, Kajhang Suvora* kabi.

Xonanda oti *“kuyla”* ma’nosini anglatadigan tojikcha *xondan* fe’lining xon hozirgi zamon asosidan *–anda* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan hozirgi zamon sifatdoshi shakliga teng bo‘lib, *“ashulachi”* ma’nosini anglatadi [9, 242].

Musiqaga oid ayrim terminlarning yuzaga kelishida metafora asos bo‘ladi. Masalan, *avj, quloq, harrak, kosa, dasta, hofiz, g‘ajirnay* kabi.

Xulosa va takliflar. Musiqa san’ati bilan bog‘liq terminlar tilimizda alohida semantic maydonni tashkil etadi. Ular tarixiy-etimologik jihatdan rang-barang bo‘lib, o‘z qatlamga oid terminlar ancha qadimiy. Musiqaga oid terminlarni jamlash va tahlil qilish tilimizning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi. Chunki musiqa milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi manbalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳадова М. Терминми, атамами, истилоҳ? // Филология масалалари. – Тошкент, 2007. -№ 4. – Б. 24-27.

2. А. Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. –Toshkent, 1993.
3. Ўзбек халқ мусиқаси. 1-9-жildлар. – Toshkent, 1955-66;
4. Ражабов И. Мақомлар масаласига доip, Toshkent, 1963;
5. Кароматов Ф. Ўзбек халқ мусиқаси мероси. 1-2-жildlar. – Toshkent, 1978-83;
6. Кароматов Ф. Ўзбек чолғу мусиқаси. – Toshkent, 1972.
7. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – Б. 191.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – B. 856. www.ziyouz.com
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати.– Тошкент: Университет, 2003. 3-ж. -Б. 242.